

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI

JO‘ROLOV AZAMAT ABDIRASHIDOVICH

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTINING ZARURLIGI VA
VAZIFALARI”**

5231300 – “Pensiya ishi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Fakultet dekani

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

“ ____ ” _____ 2018 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Pensiya ishi” kafedrasi mudiri

_____ i.f.n. B.Mamatov

“ ____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi: 5231300 -“Pensiya ishi” ta‘lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Jo‘rolov Azamat Abdirashidovich

Ilmiy rahbar:

_____ o‘q. J.P.Tursunov

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

Betlar

KIRISH	3
1-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	8
1.1. Davlat pensiya ta‘minotining zarurligi va rivojlanish bosqichlari.....	8
1.2. Davlat ijtimoiy ta‘minotini amalga oshirishda davlat pensiya ta‘minotini o‘rni va vazifalari.....	16
1.3. Davlat pensiya ta‘minotini tartibga solishning qonuniy-huquqiy asoslari.....	22
1-bob bo‘yicha xulosa.....	27
2-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI VA UNDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI	29
2.1. Davlat pensiya ta‘minotining bugungi holati tahlili.....	29
2.2. Davlat pensiya ta‘minotida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning amaldagi holati tahlili.....	40
2-bob bo‘yicha xulosa.....	49
3-BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH DAVRIDA DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	50
3.1. Xorij tajribasi asosida davlat pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish istiqbollari.....	50
3.2. Davlat pensiya ta‘minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari.....	55
3-bob bo‘yicha xulosa.....	60
XULOSA VA TAKLIFLAR	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	64

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Kuchli ijtimoiy siyosat jamiyat hayotining muhim sohasi va har bir davlat faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot tamoyillariga mos pensiya ta‘minoti esa uning amaliy vositalaridan biridir. Pensiya ta‘minotining to‘g‘ri tashkil etilishi ham muayyan guruhga mansub ko‘plab odamlarning, ham aholining daromadi, mehnati, turmush sifati hamda darajasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat maqsadlariga erishish imkonini beradi. Pensiya tizimi – bu ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning bir ko‘rinishidir. Pensiya – bu fuqarolarning pensiya yoshiga yetganda oladigan daromadlarining bir ko‘rinishi bo‘lib, mehnat bozoridan ketgan paytdagi to‘lanadigan ijtimoiy kompensasiyadir. Istiqlol yillarida aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish, pensiya ta‘minoti sifatini oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich islohotlar olib borildi. Pensiya jamg‘armasi shakllangan kundan boshlab hozirgacha 60 dan ortiq qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” gi Qonunning o‘ziga bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotganligi, aytish mumkinki, pensiya ta‘minoti tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Pensiya qonunchiligi Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda moliyalashtirish, to‘lovlar ustidan monitoringni yuritish, pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish borasidagi vazifalarni taribga solib turadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining mablag‘larini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish, qonunchiligini takomillashtirish masalalari bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. O‘zbekiston dunyo aholisi muayyam o‘sovchi davlatlar qatoriga kiradi. Respublika aholisining tarkibida yoshlar katta qismini egallashiga qaramasdan, keksalar soni o‘sishi bir maromda saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi yanada yaxshilanib, o‘shish tendensiyaga ega bo‘lmoqda. Shu sharoitda o‘z navbatida, ijtimoiy sug‘urta masalalarini taqqoslaganda e‘tiborni ko‘proq berib,

shundan pensiya tizimiga bog'liq masalalar alohida ijtimoiy iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, davlatimizda pensiya tizimini ijtimoiy siyosatning yuqori ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rilmogda. O'zbekistonda aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash va kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirishga asoslangan demokratik ja'miyat qurish singari maqsadli vazifa qo'yilar ekan, bunda davlat maqsadli jamg'armalarining, asosan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hozirgi va kelajakdagi rivojlanishining hisobga olmaslikning iloji yo'q. O'zbekistonda pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri, sababi u deyarli hamma fuqarolarning umrlik huquqlari bilan bog'liq ekan, fuqarolar mehnat qobiliyatini yo'qotganda shu tizim orqali ijtimoiy himoyalanaadi.

“Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” deb nom berilgan 2018-yilda ham davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilishi, uning aksariyat qismi sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat tarmoqlarini yuksaltirishga qaratilgani aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida ekanligining isbotidir.

“O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohani isloh qilish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmogda.”¹

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari” deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish ko'zda tutilgan. Ushbu yo'nalish, jumladan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018 y. – 68 bet.

qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish"² chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-son Farmoni, 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son Farmonlari va tegishli Qarorlarning qabul qilinishi aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga berilayotgan e'tiborning yuqoriligidan dalolat beradi.

Bu farmon va qarorlarga asosan O'zbekistonda keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Saxovat va muruvvat internat uylari moddiy-texnik bazalari 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlarning turar joy sharoitlar yaxshilandi, 5,4 ming odam reabilitatsiya texnik vositalari va protez ortopediya mahsulatlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sog'liklarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 mlrd so'mni tashkil etdi.³

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi "Ish haqi, pensiya, nafaqa, va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida pensionerlar, talabalar, va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilish, ular O'zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarini to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qat'iy choralar belgilangan.

Mazkur qaror mamlakatimiz hududida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar to'lashdagi mavjud ahvolni tanqidiy tahlil qilish natijasida qabul

² 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil., 6-son. 70-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 6-modda.

qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga kelayotgan murojaatlar tahlili ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni o'z vaqtida to'lamaslik to'lovlarni plastik kartochkalarga naqdsiz shaklda asossiz ravishda o'tkazish holatlari ko'paygani hamda to'lov terminallari va bank apparatlari tizimi yetarli darajada rivojlanmaganini ko'rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinayotganligi, bu tizimda muammolarning mavjudligi bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, davlat pensiya ta'minotini ilmiy organish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining obykti. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar Yunusobod tuman bo'limi tanlandi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – davlat pensiya ta'minotini iqtisodiy va tashkiliy tuzilmasini, qonuniy huquqiy asoslarini, davlat pensiya ta'minoti tizimini tarixini va hozirgi kungacha rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib xulosa va takliflar berishdan iborat. Muallif tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

- davlat pensiya ta'minotining zarurligi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- davlat ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotini o'rni va vazifalarini o'rganish;
- davlat pensiya ta'minotini tartibga solishning qonuniy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- davlat pensiya ta'minotining bugungi holatini tahlil qilish;
- davlat pensiya ta'minotida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning amaldagi holatini tahlil qilish;
- xorij tajribasi asosida davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish istiqbollari o'rganish;

– davlat pensiya ta'minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati, muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy xulosalarning va uslubiy tavsiyalarning mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan pensiya ta'minoti tizimini istiqbolda rivojlantirish va jamg'armalardan foydalanishning samaradorligini oshirishga hamda tizim nazoratini yuritishda qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Ilmiy xulosa va amaliy takliflardan mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'riqnoma, me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Shuningdek, tadqiqot ishi 68 betdan iborat bo'lib, unda 10 ta rasm hamda 6 ta jadval keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti, nazariy-amaliy ahamiyati hamda bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko'rsatilgan.

Ishning birinchi bobida O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minoti va unda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati tahlili keltirilgan.

Ishning uchinchi bobida esa iqtisodiyotni liberallashtirish davrida davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish yo'llari tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan shakllantirilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning qisqacha mazmuni o'z ifodasini topgan.

1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Davlat pensiya ta'minotining zarurligi va rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimi ma'lum tarixiy yo'lni bosib o'tgan bo'lib, uning rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin. Pensiya ta'minoti rivojlanishining birinchi bosqichi 1917-1956-yillarni qamrab olib, "pensiya" tushunchasining paydo bo'lishi bilan ta'riflanadi. 1917-1919-yillarda pensiya ta'minoti yuzasidan ellikdan ortiq dekret qabul qilingan bo'lib, ularning asosiy g'oyasi mehnatga qobiliyatsizlarni ijtimoiy jihatdan ta'minlashni jamiyat zimmasiga yuklashdan iborat edi. 1930-yilda "Pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilgan, 1956-yilda "Davlat pensiyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingunga qadar pensiyalar mazkur Nizom asosida to'lab kelingan. Mazkur Nizomga muvofiq, pensiya bilan ta'minlanish huquqiga faqat mehnatdan jarohatlanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lgan shaxslargina ega bo'lgan. Bu bosqichning xususiyati yagona pensiya ta'minoti tizimining mavjud bo'lganligidir.⁴

Pensiyalar har bir tarmoq uchun belgilangan alohida tartib asosida tayinlandi. Pensiya ta'minotini rivojlanishining ushbu bosqichiga xos muhim jihatlardan biri, ikkinchi jahon urushi davrida pensiyaga oid qonun hujjatlari harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini pensiya ta'minoti haqidagi yangi qaror bilan to'ldirildi va takomillashtirildiki, ularni tizimning daromad qismida ishtirok etmagan holda, xarajatlar qismidagi ishtiroki, muayyan muammolar va e'tirozlarni keltirib chiqardi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilandi.

Ikkinchi bosqich 1956-yilda qabul qilinib, 1991-yilga qadar amal qilgan "Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va ilk bor yagona pensiya tizimining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu qonun pensiyalarni tayinlash, hisoblab chiqish va to'lashning yagona tartibini belgilab

⁴ Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 30 b.

berdi. Mazkur qonunda jamoa xo'jaliklari xodimlarining pensiya ta'minoti ko'zda tutilmagan edi. Jamoa xo'jaliklari a'zolarining pensiya ta'minoti mahalliy miqyosda, ya'ni xo'jaliklararo pensiya jamg'armalari tuzish yo'li bilan hal qilingan va faqat 1964-yilga kelibgina pensiya ta'minoti aholining barcha qatlamlarini qamrab oldi. Pensiya tizimining mazkur ikki bosqichiga xos xususiyatlarni umumlashtiradigan bo'lsak, bu bosqichlarda aholini pensiya bilan ta'minlash tizimi to'liq shakllantirildi.

Uchinchi bosqich ijtimoiy ta'minot tizimida islohotlarning boshlanishi va uning asosi bo'lgan "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 1990-yilda qabul qilinishi bilan belgilanadi. Ushbu qonunning qabul qilinish zaruriyati shundaki, avvalgi pensiya qonunchiligi nizolari bilan jamiyatda vujudga kelgan ko'pgina o'zgarishlar o'rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo'lib, jamoat iste'mol jamg'armalari hisobiga davlat tomonidan pensiya ta'minotini amalga oshirishni kafolatlash imkoni bo'lmay qoldi. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, amaliyotda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiyalar va daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. Uchinchi bosqichda teng taqsimlash tamoyilidan chekinib, pensiya ta'minotining mehnat miqdori va sifatiga erishishga urinib ko'rildi. Amal qilib kelgan pensiya tizimida fuqarolarga ishlagan davri muddatidan qat'iy nazar, bir miqdorda keksalik pensiyasi tayinlangan bo'lsa, yangi qonunda esa ko'p ish stajiga ega fuqarolarga pensiya ta'minotida ustunlik berildi. Mazkur qonunda pensiya miqdorini tayinlash uchun oylik ish haqi darajasi mezon sifatida qabul qilindi.⁵

Pensiya ta'minoti tizimi tarixiga nazar solar ekanmiz, ijtimoiy ta'minot faqat xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilganining guvohi bo'lamiz. O'zbek halqining tarixi O'rta Osiyo xalqlari tarixining bir bo'lagi bo'lib, u o'ziga xos tarzda og'ir va murakkab yo'llarni bosib o'tgan.

1918-yil 31-oktabrda qabul qilingan pensiya ta'minoti to'g'risidagi nizomga va Turkiston markaziy Ijroqo'mining 1920-yil 3-yanvardagi 165-sonli buyrug'iga

⁵ Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 30 b.

asosan, I guruh nogironlariga o`rtacha ish haqining 1,5 qismi, II guruh nogironlariga o`racha ish haqi, III guruh nogironlariga o`rtacha ish haqining 75 foizi, IV guruh nogironlariga o`rtacha ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya tayinlanadigan bo`lgan. 1920-yil 20-yanvarda 185-sonli qarorga asosan, boquvchisini yo`qotganlik pensiyalarining miqdori bir kishiga o`rtacha ish haqining 60 foizi, ikki kishiga 75 foizi, uch kishi va undan ortiq bo`lganda 100 foiz miqdorda qilib belgilangan.

Pensiya miqdorlari jamiyatning taraqqiyoti yoki uning pasayishi munosabati bilan o`zgarib turgan. Ilk bor o`rtacha pensiya miqdori 10 so`m, keyinchalik 13, 18 so`mni tashkil qilgan. Nogironlik pensiyasi I guruhga 12 so`m, II guruhga 9 so`m, III guruhga 6 so`m bo`lgan.

Bu davrda nafaqat pensiya, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak yetkazib berishda ko`p qiyinchiliklarga duch kelingan. 1923-1924-yillarda markazdan va qurg`oqchilik bo`lgan o`lkalardan Turkistonga aholining ko`chib kelishi, ocharchilikning mavjudligi, ijtimoiy himoyalash, oziq-ovqat, turar-joy, ish bilan ta`minlash masalalarini hal qilish maqsadida alohida komissiya tuzilib, mablag`lar davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobidan amalga oshirilgan.

Asta-sekin xalq xo`jaligining ba`zi bir tarmoqlaridagi shaxslarga nisbatan qarilik pensiyalari joriy qilina boshlandi.⁶

1930-yil 13-fevralda SSSR XKS ning “ Ijtimoiy ta`minot bo`yicha pensiya va nafaqalar to`g`risida”gi Nizomi bilan davlat pensiyalari tartibga solina boshlandi. Ushbu Nizomning birinchi bo`limi nogironlik pensiyalariga bag`ishlangan bo`lib, umumiy kasallik bo`yicha nogironlik pensiyasi ish stajiga qarab, agar mehnatda mayiblansa yoki kasb kasallikdan nogiron bo`lganlarga, o`rtacha oylik ish haqining uchdan ikki qismi, mehnatda mayiblanganlarga 100 foizi, boshqa guruh nogironlariga qisqartirilgan miqdorlarda tayinlanadigan bo`ldi. Ushbu nizomning ikkinchi bo`limi bo`yicha ishlab turib, vafot etgan shaxslarning qaramog`ida bo`lgan oila a`zolariga umumiy kasallikdan vafot etganda, oilada

⁶ Xaitov A., Ziyadullayev M. O`zbekistonda pensiya ta`minoti va xorijiy tajribasi. O`quv qo`llanma. – T.: Adolat 2009. 172 bet.

ikkita a`zo bo`lsa, marhumning o`racha ish haqining to`qqizdan to`rt qismi mehnatda mayiblanib, vafot etganlarning oila a`zolariga o`rtacha ish haqining to`rtidan uch qismi miqdorida, boquvchisini yo`qotganlik pensiyalari belgilandi. Uchinchi bo`lim yoshga doir pensiyalarga tegishli bo`lib, umumiy pensiya yoshi erkaklarga 60 yosh, ayollarga 55 yosh qilib, talab qilingan ish staji erkaklar uchun, 25 yil, ayollar uchun 20 yil qilib, pensiya miqdori esa o`rtacha ish haqining 50 foizidan kam bo`lmagan miqdor qilib belgilandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida esa harbiy xizmatchilar, ularning oila a`zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to`g`risida bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Bolali ayollarga, ko`p bolali va yolg`iz onalarga davlat yordamni kuchaytirish maqsadida nafaqalar joriy qilindi.

1944-yil iyuldagi farmonga asosan “Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni, “Qahramon ona” faxriy unvonlari joriy qilindi. 1947-yildan boshlab ko`p bolali onalarga nafaqalar tayinlash tartibi to`g`risidagi nizom amal qila boshladi.

1956-yil 14-iyulda “Davlat pensiyalari to`g`risida”gi birinchi qonun qabul qilindi. Bu qonun asosan ilgari ham farmon va qarorlar asosida tayinlanib kelayotgan pensiyalarning barcha turlari yagona qonunga asoslanib, tayinlanadigan bo`ldi. Lekin bu qonun faqat ishchi va xizmatchilargagina nogironlik, qarilik boquvchisini yo`qotganlik ko`p yillik pensiyalarni tayinlashni ko`zda tutgan edi.

1968-yil 1-yanvaridan boshlab kolxozchilarning pensiya yoshi ishchi xizmatchilarnikiga tenglashtirildi va I va II-guruh nogironlarning pensiya miqdorlari oshirildi. Shu davrdan boshlab III-guruh mehnatda mayiblangan kolxoz a`zolariga ham nogironlik pensiyalari tayinlanadigan bo`ldi.

1972-yil 3-avgustda “Davlat pensiyalarini tayinlash va to`lash tartibi to`g`risida” gi Nizom qabul qilinib, pensiyalarni hisoblab chiqarish tartibiga bir nechta o`zgartirishlar kiritildi. Ushbu nizom 1974-yildan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdorini 45 so`m qilib belgiladi.⁷

⁷ Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta`minoti. O`quv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 34 b.

1990-yilgacha bo`lgan davrda ikkinchi jahon urush nogironlari, urushda halok bo`lganlar oila a`zolarining pensiya miqdorlarini oshirish va ularga imtiyoz va yengilliklar belgilash to`g`risidagi bir qancha qarorlar, farmonlar qabul qilindi.

Respublikamizda amal qilayotgan pensiya tizimi “avlodlar birdamligi” tizimi bo`lib, 1991-yilda pensiya miqdorini ish staji davomiyligi va o`rtacha oylik ish haqiga uzviy bog`lash hamda maxsus Pensiya jamg`armasi hisobidan tizimni moliyalashtirishni amalga oshirishga harakat qilindi. 90-yillarda pensiyaga oid qabul qilingan qonunlar pensiyani belgilash va to`lash tartibiga katta o`zgartirishlar kiritgan bo`lishiga qaramay, u asosiy muammo pensiya tizimi moliyaviy ta`minotini barqarorlashtirish masalasini hal qila olmadi.

Mustaqillikka erishgan kundan boshlab, respublikamizda alohida ijtimoiy ta`minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi. Aholining davlat himoyasiga muhtoj bo`lgan qatlami bolali oilalar, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo`lganlarning ahvoli bozor munosabatlariga o`tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadrsizlanishi bilan qiyinlashib ijtimoiy notengsizlik yuzaga kelish xavf-xatari sezila boshladi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi qarori bilan Ijtimoiy sug`urta jamg`armasi tashkil etildi. Bunga qadar faoliyat yuritib kelgan ittifoq Pensiya jamg`armasining o`zbek bo`linmasining barcha vakolatlari va mablag`lari respublika Ijtimoiy sug`urta jamg`armasiga berildi. Bu vaqtga kelib to`lovchilardan tushadigan tushumlar asosan mustaqil O`zbekiston tomonidan milliylashtirilgan sobiq korxonalar tomonidan to`lanadigan to`lovlar vaqtinchalik ishga layoqatsizlik, homiladorlik va tug`ish, bola parvarishi va dafnga beriladigan to`lovlarga ajratilgan mablag`larning bir qismi ham berilgan edi.

Bundan qayta tashkil etish Pensiya jamg`armasining barcha viloyat va tumanlardagi ma`muriy bo`linmalarida amalga oshirilib, ular asosida Ijtimoiy sug`urta jamg`armasining vakolatli bo`limlari tashkil etildi. Umuman olganda, 1994-1996-yillardagi ish tajribasi O`zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qaror o`z davriga mos va zarur bo`lganligini ko`rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug'urta jamg'armasining tuzilishi bilan bir vaqtda 1993-yil 3-sentyabrida yangi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning mohiyati-pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalash, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlash tashkil etadi. Mazkur qonunning negizi va uning Markaziy Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari pensiya tizimlaridan asosiy farqi, pensiya hisoblash mexanizmidir. Ushbu mexanizm bo'yicha barcha turdagi pensiyalar uch qismdan iborat bo'ldi.

Birinchi qism kafolatlangan bo'lib, pensiyaning tayanch miqdorini tashkil etadi. Bu qism O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining talabidan kelib chiqqan bo'lib, pensiyaning eng kam miqdori davlat tomonidan belgilanadi, ya'ni "pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas".⁸ Ikkinchi qism pensiya tayinlash uchun talab etilgan stajdan ortiq bo'lgan har bir to'liq yil uchun pensiya miqdorini oshirishdir. Bu qismning zarurligi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, har bir shaxsning mehnat staji davomiyligini inobatga olish imkonini beradi. Uchinchi qism pensiyaga qo'shiladigan ustama bo'lib, jamiyat oldida xizmat ko'rsatgan yoki sog'lig'i tufayli qo'shimcha ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarga beriladi.⁹

Ilgari sobiq Ittifoq qonunida belgilangan ijtimoiy pensiyalar o'rniga ish staji yo'q fuqarolarga Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-iyundagi 319-sonli qaroriga asosan yolg'iz qariyalar, nogironlar va bolalikdan nogironlarga nafaqalar belgilandi.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 35-son, 914-modda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993. www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.

Iqtisodiy islohatlarning rivojlanishi, yangi mulkchilik shakllari va erkin xo`jalik munosabatlarining vujudga kelishi yo`sinida ijtimoiy sug`urta jamg`armasiga sug`urta mablag`larini yig`ish, to`lovlarning to`liqligi va o`z vaqtida amalga oshirilishi, pul mablag`larini to`g`ri va samarali ishlatilishini nazorat qilish borasidagi asosiy vazifalarni bajarish borgan sari qiyinlashib bordi. Pensiya va to`lovlarni to`lash uchun mablag`larining yetishmasligi sezila boshladi.

Natijada 1996-yil 27-dekabr kuni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi qoshida Pensiya jamg`armasini tashkil etish to`g`risida”gi 459-sonli qarori qabul qilindi.

1999-yil 7-dekabrda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 520-sonli hamda 2007-yildagi 459-sonli qarorlari bilan “Hech kimi yo`q yolg`iz keksa va nogironlarni ijtimoiy himoyalashga doir 2010-yilgacha mo`ljallangan davlat Dasturi” qabul qilindi va yolg`izlarning salomatliklarini muhofozalash va ularni ijtimoiy himoyalashga doir bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchi bor 1997-yil 1-yanvardan boshlab Pensiya jamg`armasining pul mablag`lari ushbu fondning mablag`larini maqsadli shakllantirilishi va ishlatilishi saqlangan holda O`zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga belgilab qo`yildi.

Pensiya jamg`armasi tarkibiy tuzilishining qayta tashkil etilishi hududiy miqyosida ham amalga oshirilib, boshqarish tizimini soddalashtirdi. 2000-yilda pensiya ta`minoti tizimi boshqaruvining yuqori bo`g`inlariga tub o`zgarishlar amalga oshirildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000-yil 15-noyabr kuni “O`zbekiston Respublikasi pensiya ta`minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini qabul qildi. Unga binoan O`zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta`minot vazirligi qoshidagi Pensiya jamg`armasi 2001-yil 1-yanvardan O`zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtdan boshlab Pensiya jamg`armasining mablag`larning to`liq to`planishi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasiga kelib tushishi bo`yicha nazorat vazifalari O`zbekiston Respublikasi Soliq qo`mitasiga, byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasini boshqarish, nafaqa

to'lovlarining tushum va harajatlarining yillik va chorak pragnoz balanslarini shakllantirish, aholiga nafaqa va to'lovlarni o'z vaqtida hisoblash va amlaga oshirish esa qaytadan tashkil etilga Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vaziri O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'larini bosh boshqaruvchisi, ushbu vazirlikning joylardagi hududiy idoralarining rahbarlari esa Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlarining mablag'larining boshqaruvchisiga ega bo'ldilar.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari tog'risida" gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuriga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004-yilda qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni muhim hisoblanadi. Unga ko'ra, 2005-yildan boshlab O'zbekistonda amaldagi davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti ham kiritilgan shuni qayd etish lozimki, davlat va jamg'arma pensiya tizimlari bir birini to'ldirib bormoqda.¹⁰

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-son Farmonida Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda moliyalashtirish, to'lovlar ustidan mablag'larning maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Quyidagi rasmda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi keltirilgan (1-rasm).

¹⁰ Allayarov Sh.A., Toshmuxeamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 47 b.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi¹¹

Bundan tashqari 2010-yildan boshlab, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur jamg'arma – uning Ijro etuvchi apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta hududiy boshqarmasi hamda 196 ta tuman (shahar) bo'limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega.

1.2. Davlat ijtimoiy ta'minotini amalga oshirishda davlat pensiya ta'minotini o'рни va vazifalari

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning kuchli tomonlaridan biri uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Hukumatimiz respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridayoq islohatlarning aholini xususan, uning

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-y., 15-son, 249-modda; 26-son, 591-modda, 37-son, 990-modda, 37-son, 997-modda.

ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilish asosida amalga oshira boshladi va shu yo`ldan bormoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo`nalishi sifatida qabul qilinishi mazkur soha taraqqiyotini ta`minlash masalasining dolzarbligini ifodalaydi.

Ijtimoiy ta`minot doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o`rinni egallab kelgan. Mamlakatda yashaydigan fuqarolarda o`z hayot faoliyatining ma`lum bosqichlarida va alohida holatlarida ijtimoiy ta`minot tizimi xizmatlariga ehtiyojlari yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga shuningdek, mehnatkashlarning hamda ma`lum sabablarga ko`ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoriga bog`liq.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, turli markazlashgan va markazlashmagan jamg`armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag`lari jamg`armasi davlat byudjetini tuzish va ijro qilish yo`li bilan ta`minlanadi. Mustaqillik yillarida murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O`zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag`lar izlab topildi.

“Ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy ta`minot” bir ma`noli tushuncha emas, balki turdosh tushunchalardir.¹² Ulardan ilmiy ta`riflar sifatida foydalanilganda, “ijtimoiy himoya” “ijtimoiy ta`minot”ni tarkibiy qismi sifatida o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta`minlovchi mehnat, sog`liq va tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to`lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni qamrab oladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O`zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo`llashni taqozo etadi. Jahon tajribasining ko`rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo`lga qo`yish va undan samarali foydalanish boshqa daromad hisobga olingan holatda ijtimoiy

¹² Xaitov A., Ziyadulaev M. O`zbekistonda pensiya ta`minoti va xorijiy tajribasi. O`quv qo`llanma. – T.: “Adolat”. 2009. -B.108.

muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashning muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot sifatida davlat pensiya ta'minoti muhim o`rin tutadi.

O`zbekiston Respublikasida aholining yuqori turmush darajasini ta`minlash va kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish vazifasi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, bunda pensiya tizimi muhim rol o`ynaydi.

O`zbekistonda pensiya ta'minoti bu mamlakatimizda fuqarolarga O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanlangan moddiy ta'minotni taqdim etish maqsadida tashkil etilayotgan huquqiy – tashkiliy institutlar va normalar majmuidir. Shu bois pensiya ta'minoti mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy muhofaza tizimining fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta`minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, tashkil xususiyatiga ega kompleks chora- tadbirlarni amalga oshirishni ko`zda tutadi.

O`zbekiston Respublikasi fuqarolari “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to`g`risida”gi¹³ Qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta`minlanish huquqiga egadir. Pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiya – shaxslarga pensiya yoshiga yetishi, nogironlik yoki boquvchisini yo`qotganligi munosabati bilan beriladigan oylik pul to`lovi bo`lib, uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlar va me`yorlarga muvofiq aniqlanadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi, davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi.

Pensiya ta'minoti tizimining oldida bugungi kunda uchta muhim maqsad turadi:


- fuqarolarni keksayganda qashshoqlikdan himoyalash;

¹³ O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi “O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli Qarori. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2017-y., 15-son, 249-modda; 26-son, 591-modda, 37-son, 990-modda, 37-son, 997-modda.

– mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to`lanadigan ish haqiga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta`minlash;

– kelajakda pensiya tizimi orqali fuqaroni turmush darajasini yaxshilashdan iborat.

Pensiya tizimi ta`minot asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo`naltiriladigan pul mablag`lari jamg`armasidan foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg`armalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag`larning qat`iy maqsadli ishlatilishi, aholi ijtimoiy tabaqalashuvini yumshatishga yo`naltirilganligi, mablag`larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil moliya-kredit tashkiloti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg`arma ekanligi hamda ijtimoiy ta`minotining muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir.



2-rasm. Pensiya ta`minoti tizimining maqsadlari¹⁴

Pensiya ta`minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan

¹⁴ Axmedov D.Q. Ijtimoiy ta`minot huquqi. Darslik. –T.: TDYI, 2008. 406 bet.

bog'liqdirki, fuqarolar mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadilar.

Pensiya bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqishda siyosatning eng asosiy masalasi pul mablag'larini jamg'arish vazifalari bilan, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalari bilan, shuningdek ularning har birini amalga oshirishda davlatning roli bilan bog'liq. O'z navbatida bularni amalga oshirish uchun moliyaviy iqtisodiy barqarorlik, jamg'arma institutlarini tashkil qilishni o'z ichiga olgan fond bozorlarining rivojlanishi va unga muvofiq keluvchi qonunchilik asoslarini yaratish, aholi jamg'armalarini rag'batlantiruvchi samarali soliq siyosatini yuritish, aholining moliyaviy muassasalarga bo'lgan ishonchini ta'minlovchi davlat boshqaruv tizimi zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining barqarorligi ta'minlanmoqda, uning daromadlari bilan jamg'armadan amalga oshirilayotgan to'lovlar to'lig'icha moliyalashtirilmoqda. Lekin jamg'armaning davlat byudjeti tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini ham alohida qayd etish lozim.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondashuv asos bolib hizmat qiladi: birinchi yondashuvga ko'ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondashuv bo'yicha – pensiya ish haqining zahiralanuvchi qismi bo'lib sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minotga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Pensiya ta'minotining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg'unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug'urtaviy tizimlar bilan to'ldirildi, sug'urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiati nafaqat umummaqbul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo'lib hizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama yozuvi shundan iborat bo'ladiki, birinchidan, pensiya fuqarolarni kambag'allikdan himoyalab, ular daromadlarining minimal

darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma`lum belgilangan sug`urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o`rnini bosadi, ya`ni yo`qotilgan daromadni yoki uning ko`p qismini kompensatsiyalaydi.

Har bir mamlakatda u yoki bu pensiya modeli asosida milliy pensiya tizimlari shakllangan bo`ladi. Pensiya tizimining modeli uning moliyaviy jihatdan tashkil etilishini hamda mamlakat fuqarolarini qarilikda moddiy jihatdan ta`minlash bilan bog`liq bo`lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Umuman olganda, mamlakatda aholining pensiya ta`minoti darajasi ustuvor ravishda ikkita omilga bog`liq: ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Har ikkala omil, shuningdek, pensiya ta`minoti darajasi ta`minoti darajasi mamlakatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Milliy pensiya tizimlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- aholini maksimal darajada pensiya tizimiga qamrab olish;
- pensiya yukini (og`irligini) pensiya tizimi subyektlari-ish beruvchilar va ishlovchilar o`rtasida adolatli taqsimlash;
- barcha sug`urtalanuvchilarni qarilikda yoki nogironlikda o`z xohishi bilan yoki majburan pensiyaga chiqishi natijasida yo`qotayotgan daromadining katta qismini qoplash orqali mablag` bilan ta`minlash;
- talab qilingan yetarli mehnat stajiga ega bo`lmagan fuqaro toifalarini, shuningdek boquvchisini yo`qotgan fuqarolarni kambag`allikdan ijtimoiy himoya qilish;
- inflyatsiya, ish haqilarining oshishi va hayot sifatining ko`tarilishi kabi omillarni hisobga olgan holda pensiyalarni indeksatsiya qilish.

Pensiya ta`minoti milliy g`oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o`n yilliklar mobaynida ko`p mamlakatlar o`zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o`zgarishi bilan bog`liq bo`lgan isloh qilish zarurati bilan to`qnash kelmoqda.

Bugungi kunga kelib pensiya ta'minoti har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya islohotlarini olib borishda xorijiy tajribani har tomonlama o'rganish, jahon mamlakatlarida aholining ijtimoiy himoyasiga xizmat qiladigan, keksaygan paytida fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini ta'minlaydigan, shu bilan birga, bozor sharoitlariga mos bo'lgan, fuqarolarning o'z farovonligini ta'minlashdagi ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladigan mukammal pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va uning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash masalalari bugungi kunda mamlakatimizda pensiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalari qatorida bo'lishi lozim.

1.3. Davlat pensiya ta'minotini tartibga solishning qonuniy-huquqiy asoslari

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan eng muhim huquqi – pensiya ta'minoti huquqi bilan mustahkam bog'liq. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pensiya ta'minotining yangi tizimi paydo bo'ldi. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini yaratilishida xukumatimiz tomonidan qator qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.

Bizga ma'lumki har bir tizimni tartibga solish uchun qonuniy-me'yoriy asoslari boladi. Xususan davlat pensiya ta'minotining ham bir qancha qonuniy-huquqiy asoslari mavjud bo'lib, bular pensiya ta'minotini faoliyat ko'rsatishi uchun, ushbu faoliyat ustidan nazorat o'rnatish uchun muhim richak vazifasini o'taydi. Ushbu hujjatlarning asosiylarini biz quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

**Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning huquqiy asosini
tashkil qiluvchi asosiy hujjatlar¹⁵**

№	Hujjat nomi
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 1993-yil 3-sentyabrdagi 938-XII-sonli Qonuni
3	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 2004-yil 2-dekabrda 702-II-sonli Qonuni
4	O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli Farmoni
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 2017-yil 20-noyabrda PF-5245-sonli Farmoni
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli Farmoni
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2016-yil 26-dekabrda PQ-2699-sonli Qarori
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 2-fevralda PQ-2753-sonli Qarori
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2010-yil 19-fevralda 30-sonli Qarori
10	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida" 2011-yil 7-aprelda 107-sonli Qarori
11	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011-yil 8-sentyabrda 252-sonli Qarori
12	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2013-yil 15-fevralda 44-sonli Qarori
13	O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" 2002-yil 1-aprelda 21-sonli Buyrug'i
14	O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligining "Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" 2011-yil 25-yanvarda 2-Q, 5-sonli Qarori

¹⁵ www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 1993-yil 3-sentyabrdagi 938-XII-sonli Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun bilan davlat pensiyalarining uch turi mavjud bo'lib, bular yoshga doir, nogironlik pensiyasi va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi (3-rasm).

Umuman olganda, ushbu pensiya turlarini bir necha turini olish imkoniyati paydo bo'lganda faqat bittasini olish mumkin.



3-rasm. Davlat pensiyalarining turlari¹⁶

¹⁶ Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. – 280 b.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaribilan belgilanadi,ularga qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi.

Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga:

– erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

– ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.¹⁷

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi. Pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi:

- pensiyaning tayanch miqdoridan;
- ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan;
- pensiyaga qo'shiladigan ustama haqidan.

Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr, 938-XII-son. Manba: lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

a) yoshga doir pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

g) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

d) ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida tayinlanadi.¹⁸

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiyalari to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar va badallar miqdorlari hamda ularni to'lash muddatlari O'zbekiston Respublika jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr, 938-XII-son. Manba: lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo'li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan kompleks chora tadbirlar ishlab chiqildi va mazkur dastur o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasida tasdiqlandi. Pensiya jamg'armasi faoliyatini samaradorligini oshirish uchun unga biriktirilgan daromad turlarini ko'paytirish va o'z vaqtida shakllantirilishi pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini oshirishga, pensiya jamg'armasi vazifasini o'z vaqtida bajarishga va pensiya tizimining barqarorligini ta'minlashga muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda biz yuqorida mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirilishining hamda uning huquqiy-me'yoriy bazasini yaratilishini uzviy bog'liqlikda bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini asoslab yoritib berishga xarakat qildik. Shunday qilib, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini va uning Buning natijasida respublikamizda axolini ijtimoiy himoya qilishning asosiy bo'g'ini bo'lgan mukammal pensiya ta'minoti tizimi yaratildi va xozirgi kunda ham uni takomillashtirish yuzasidan uzluksiz ishlar olib borilmoqda.

1-bob bo'yicha xulosa

Ayni damda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning kuchli tomonlaridan biri uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq islohotlarning aholini xususan, uning ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilish asosida amalga oshira boshladi va shu yo'ldan bormoqda.

Pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslariga bugungi kunda bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Pensioner va nafaqa oluvchilarga qulayliklar yaratib berildi. Bizga ma'lumki ijtimoiy ta'minotning eng asosiy bo'g'ini pensiya ta'minoti hisoblanadi. Bugungi kunga kelib pensiya ta'minoti har qanday

demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o`ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati yaxshi yo'lga quyilgan deb ayta olamiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati jamg'arma faoliyatini boshqarishda nazorat funksiyasini to'liqligicha amalga oshirmoqda.

Umuman olganda, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davlat pensiya ta'minotining rivojlanish bosqichlari va bugungi hayotimizda tutgan o`rni, pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari, pensiya tizimini yanada rivojlanib pensionerlar va jamg`arma faoliyati uchun yanada qulayliklarni yaratib beradi.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI VA UNDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

2.1. Davlat pensiya ta'minotining bugungi holati tahlili

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, aholini yanada ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2010 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2009 yil 30 dekabrda PF-4161-sonli Farmoniga muvofiq, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, ularni hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirila boshlandi.

Mazkur jamg'arma Ijro etuvchi apparat, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi 14 ta hududiy boshqarma hamda 196 ta tuman (shahar) bo'limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega bo'lib, unda 5 000 ga yaqin xodim faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, jamg'armaga tibbiy-mehnat ekspertizasi (TMEK) faoliyatini tashkil etish vazifasi ham yuklatilgan bo'lib, bunda mamlakatimiz bo'yicha 108 ta bosh, tumanlararo, tuman (shahar) TMEKlari faoliyatini tashkil etish vazifasi ham jamg'arma tomonidan shu kungacha amalga oshirilib kelinar edi. Biroq, 2017 yildan boshlab ushbu faoliyat turi jamg'arma tasarrufidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. Bu esa jamg'armaning tashkiliy-iqtisodiy asosiga o'zining ijobiy ta'sirini korsatmay qolmaydi.¹⁹

Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, 1993 yilda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli Qarori. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

Ushbu Qonunga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar zamirida mamlakatimizda istiqomat qiluvchi pensioner va nogironlarning turmush darajasi hamda faravonligini oshirish, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash yotadi.

Shuningdek, davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi va unda belgilangan vazifalarni amaliyotga joriy etish borasida keng muhokamaga quyildi. Bu ham pensiya ta'minoti tizimini isloh etish borasida yangi sahifa ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 2017-yil 20-noyabrdagi PF-5245-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida pensiya va ijtimoiy nafaqa miqdorlari qayta hisoblanib, yangi miqdorlarda to'lanishi ta'minlandi va pensionerlarning mobil telefonlariga "SMS" ma'lumot yuborish ilk bor joriy etildi.²⁰

Tizimda zamonaviy "Pensiya" elektron bazasi shakllantirilib, 2012 yilning 1 apreldan boshlab pensiya va nafaqalarni tayinlash, 1 iyuldan boshlab to'lash ishlari yangi "Pensiya" dasturi orqali amalga oshirilmoqda. 2012 yilda 140 tadan ortiq idoraviy va statistik hisobotlar tayyorlanishi ushbu dastur orqali amalga oshirilishiga erishildi. Dastur mutaxassislar tomonidan mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida respublikada va joylarda amaliy hamda video seminarlar tashkil etildi.

Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlari tomonidan fuqarolarni ish staji va ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirib berish yuzasidan o'zaro so'rov xatlarni yuborish va javob olishni bajaruvchi elektron pochtaning "So'rovnoma" moduli, "Test" moduli va "Me'yoriy-huquqiy hujjatlar" moduli hamda tarkibiy tuzilmalar faoliyatini baholash va ular o'rtasida raqobatni hosil qilish maqsadida "Reyting" elektron baholash tizimi WSP "Personal" dasturida ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Shuningdek, "TMEK" dasturi bilan "onlayn" rejimida o'zaro axborot almashinuvi joriy etildi, yangi tayinlangan pensiya va nafaqa ishlarini birlamchi

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari. Manba: www.pfru.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining rasmiy veb sayti.

hujjatlarini skanerlash orqali elektron nusxasi bazasi yaratish, “G‘azna” dasturi bilan “onlayn” rejimida jamg‘arma daromadlari va harajatlari hisobini yuritish bo‘yicha axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra respublikamizda jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 2018-yil ma‘lumotlariga ko‘ra 3337,4 ming kishini tashkil qilmoqda (2-jadval).

2-jadval

**O‘zbekistonda jami pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni,
2018-yil 1-aprel holatiga²¹**

T/r	Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning toifasi	Oluvchilarning jami soni	shundan, yangi tayinlangan
1	Yoshga doir pensiya oluvchilar	2 512 365	54 237
2	Nogironlik pensiyasi oluvchilar	360 554	6 690
3	Boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya oluvchi oilalar	168 852	5 334
4	Ijtimoiy nafaqa oluvchilar	295 657	12 346
Jami:		3 337 428	78 607

Mazkur jadval ma‘lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, yoshga doir pensiya oluvchilar soni 2,5 mln.dan oshmoqda. Bunda ishlaymaydigan pensionerlarga pensiya to‘lash xarajatlari eng katta salmoqqa ega.

Hozirgi kunda jami aholi soniga nisbatan oladigan bo‘lsak, pensiya va nafaqa oluvchilar soni jami aholining 10-11 foizini tashkil etmoqda. Bu esa davlat pensiya ta‘mioti tizimida mablag‘larini samarali boshqarish hamda yangidan-yangi manbalarini izlab topishni taqozo etmoqda.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yil I-chorak yakunlari bo‘yicha davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot materiallari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibi va tuzilishi²²

Ko‘rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (prognoz)	
	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%
Daromadlar	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0	20 232,6	100,0
Yil boshiga qoldiq	1067,3	8,2	2592,0	15,7	2568,3	14,2	2282,0	11,7	3007,5	14,9
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan tushumlar	7299,5	56,1	8324,2	50,3	9474,0	52,3	10226,0	52,4	11808,0	58,4
Fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari	1877,2	14,4	2463,8	14,9	3235,0	17,9	3993,9	20,5	4466,3	22,1
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1933,0	14,9	2063,8	12,5	1527,0	8,4	1429,7	7,3	2059,9	10,2
Boshqa daromadlar	836,7	6,4	1113,1	6,7	1291,0	7,2	1555,0	8,0	1852,4	9,1
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	18,0	0,1	18,0	0,09	46,0	0,2

²²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
Manba: lex.uz – O‘zbekiston qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari haqida gapiradigan bo'lsak, Pensiya jamg'armasining daromadlari shakllantirishda muhim o'rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar 2014-yilga nazar soladigan bo'lsak jami daromadlarga nisbatan 56,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilga kelib 58,4 foiz bo'lishi kutilmoqda. Bunda o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug'urta badallari esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ya'ni, 2014-yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 1877,2 mlrd.so'mni ulushi 14,4 foizga teng bo'lsa, 2018-yilga kelib 4466,3 mlrd.so'mga ya'ni 22,1 foizga o'sishi kutilmoqda.

Qonunchiligimizga bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi va pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib qo'yildi. Natijada, 2011-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxonalar va tashkilotlarning ish haqi jamg'armasidan to'laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo'lishi pensiya jamg'armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich, yuqoridagi tahlil ma'lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni, ya'ni kasanachilikni, duradgorchilikni va boshqa kichik biznesga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqisidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o'smoqda, ya'ni bu ko'rsatkich 2008-yilda 2,5 foizni, 2015-yilda esa bu ko'rsatkich 7,0 foizni, 2016-yilda 7,5 foizni, 2018-yilda 8,0 foizni tashkil qilmoqda. O'rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Yo'qoridagi jadvalda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2014-2018 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki, ya'ni Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi 2014-yilda 86,0 foizni tashkil etgan bo'lsa 2018-yilga kelib 84,3

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining xarajatlari tarkibi va tuzilishi²³


Ko‘rsatkichlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil		2017-yil		2018-yil (Prognoz)	
	Mrld. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so‘mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda
Xarajatlar jami	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0	23240,1	100,0
Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari	11191,9	86,0	12838,1	77,5	14779,6	81,6	16629,9	85,2	19586,9	84,3
Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlari	426,6	3,3	474,8	2,8	484,3	2,7	534,5	2,7	616,5	2,6
Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to‘lovlar	29,1	0,2	105,2	0,6	152,1	0,8	204,3	1,0	237,7	1,0
Boshqa xarajatlar	2,4	0,02	2,8	0,02	3,0	0,02	10,0	0,05	34,0	0,1
Yil oxirida qoldiq mablag‘lar	1363,7	10,5	3136,1	18,9	2694,3	14,9	2126,4	11,0	2764,9	11,9

²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
Manba: lex.uz – O‘zbekiston qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi.

foizni tashkil etishi prognoz qilingan. 2014-yilda jami xarajatlarini tarkibida ishlaydigan pensionerlarga pensiya to'lovlari xarajatlari 3,3 foizni, 2015-yilda 2,8 foizni, 2016-yilda 2,7 foizni, 2017-yil ham 2,7 foizni tashkil etgan. 2018-yilda esa 2,6 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2014-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 10,5 foizni tashkil etgan, 2017-yilda esa 11,0 foizni tashkil etgan. 2018-yilga kelib esa 11,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu esa oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say harakatlari natijasidir.

Bitiruv malakaviy oldi amaliyot o'tash davomida aniqlangan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, hozirgi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limida ro'yxatda turgan jami pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 2018 yil 1 feval holatiga ko'ra 45466 nafarni tashkil qiladi.

Endi esa byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limida ro'yxatda turuvchi pensiya va nafaqa oluvchilarning har bir turi bo'yicha tahlil qilamiz.




4-rasm. Yunusobod tuman jami pensionerlar tarkibida yoshga doir pensiya oluvchilar ulushi²⁴

²⁴ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi Yunusobod tuman bo’limida ro’yxatda turgan jami pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 2018-yil 1-fevral holatiga ko’ra 45466 nafarni tashkil qiladi. Bunda quyidagi rasm ma’lumotlariga nazar tashlaydigan bo’lsak, jami pensionerlar tarkibida yoshga doir pensiya oluvchilar salmog’i 2018-yil 1-fevralda 38298 nafardan iborat bo’lib, 84,2 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko’rsatkich 2017-yil 1-fevral holatiga 37269 nafardan iborat bo’lib, 84,4 foizni tashkil qilmoqda.

Shuningdek, nogironlik pensiyalarini oluvchilarni ham quyidagi rasm orqali tahlil qilishimiz mumkin (5-rasm).




5-rasm. Yunusobod tuman jami pensionerlar tarkibida nogironlik pensiya oluvchilar ulushi²⁵

Quyidagi ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo’lsak, jami pensionerlar tarkibida nogironlik pensiyasini oluvchilar soni 2017-yil 1-fevralda 4114 nafardan iborat bo’lib, 9,3 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko’rsatkich 2018-yil 1-fevral holatiga ko’ra esa nogironlik pensiyalarini oluvchilar soni 4176 nafarni tashkil etib jami pensionerlar tarkibidagi salmog’i 9,2 foizni tashkil qilmoqda.

²⁵ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi Yunusobod tuman bo’limining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Umuman olganda nafaqat byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limida balki, Respublika miqyosida oladigan bo'lsak jami pensionerlar tarkibida yoshga doir pensiya oluvchilar, xususan, ishlaymaydigan fuqarolarga to'lanadigan yoshga doir pensiya eng katta ulushga ega hisoblanadi. Keyingisi esa albatta nogironlik pensiyalarini oluvchilardir.

Keyingi ma'lumotimizda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limida ro'yxatda turuvchi boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar holatini ko'rishimiz mumkin.




6-rasm. Yunusobod tuman jami pensionerlar tarkibida boquvchisini yo'qotganlik pensiya oluvchilar ulushi²⁶

Ushbu raqamlarni ham tahlil qiladigan bo'lsak, jami pensionerlar tarkibida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar soni 2017-yil 1-fevralda 1188 nafar bo'lib, 2,7 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-fevral holatiga ko'ra esa pensiya oluvchilar soni 1244 nafarni tashkil etib jami pensionerlar tarkibidagi salmog'i 2,7 foizni tashkil qilmoqda.

²⁶ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Respublikamizda 1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga ko’ra uch xil ko’rinishda davlat pensiyalari berilishi va aynan bu pensiyalar O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasidan to’lanishligini bir hudud misolida ko’rib chiqdik. Lekin, nafaqat davlat pensiyalari balki ba’zi bir turdagi ijtimoiy nafaqalar ham Pensiya jamg’armasidan to’lanishligini hisobga olgan holda Yunusobod tuman bo’limidan nafaqa oluvchilar holati haqida keyingi ma’lumotimizda (7-rasm) ko’rishimiz mumkin.



7-rasm. Yunusobod tuman bo’limida jami pensionerlar tarkibida ijtimoiy nafaqa oluvchilar ulushi²⁷

Keltirilgan rasmdagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo’lsak, jami pensiya va nafaqa oluvchilar tarkibida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 2017-yil 1-fevralda 1583 nafar bo’lib, 3,6 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko’rsatkich 2018-yil 1-fevral holatiga ko’ra 1748 nafarni tashkil etib jami pensiya va nafaqa oluvchilar tarkibidagi salmog’i 3,8 foizni tashkil qilmoqda. Ijtimoiy nafaqalar oluvchilarning salmog’i ham o’sish tendensiyasiga ega.

²⁷ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi Yunusobod tuman bo’limining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Umuman olganda ushbu tizimda bo‘layotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda yuqoridagi diagrammalar ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Yunusobod tumanida yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik hamda ijtimoiy nafaqalarni oshish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Demak, har bir pensiya turida oshish tendensiyasi kuzatilar ekan bu o‘z navbatida jamg‘arma faoliyatiga bir qancha yangi vazifalarni oldiga qo‘yadi.

5-jadval

Yunusobod tuman bo‘yicha pensionerlar sonining o‘zgarishi²⁸

Hudud nomi	Pensionerlar soni		O‘zgarishi (-,+)
	01.02.2017	01.02.2018	
Yunusobod tuman	44 154	45 466	+1312

5-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2017-yil 1-fevral holatiga nisbatan 2018-yil 1-fevralda tuman bo‘yicha pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar umumiy soni 1312 nafarga ko‘paygan. Bu esa o‘z navbatida qo‘shimcha mablag‘ni talab etadi.


Demak, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Yunusobod tuman bo‘limida turuvchi pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy ulushlarini tahlil qilamiz.

8-rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ko‘rishimiz mumkin yoshga doir pensiya oluvchilar soni 84 foiz bilan eng yuqori salmog‘ga ega. Nogironlik pensiyasi oluvchilar salmog‘i esa 9 foiz bilan ikkinchi o‘rinda, ijtimoiy nafaqa oluvchilar salmog‘i 4 foiz bilan keying o‘rinda va nihoyat eng kam ko‘rsatkich 3 foiz ulush bilan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini oluvchilar tashkil qilmoqda.

²⁸ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Yunusobod tuman bo‘limining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tahlil qilingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki yildan yilga ishlovchilar to'g'risidagi ma'lumotlar PK "Pensiya" dasturidan hisobotlari to'g'ri va sifatli belgilangan muddatlarda taqdim qilib kelinmoqda.

Shuningdek, har oyning 27-sanasigacha pensiya va nafaqalar tegishli tartibda o'z vaqtida to'lab kelinmoqda.



8-rasm. 2018-yil 1-fevral holatiga ko'ra byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limi hisobida turgan pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning salmog'i, foizda²⁹

Yakun o'rnida bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tuman bo'limining ahvoli haqida so'z yuritsak, bo'limning moddiy-texnik ba'zasi yaxshi, barcha bo'limlar kompyuter va boshqa kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlangan.

2.2. Davlat pensiya ta'minotida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning amaldagi holati tahlili

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining

²⁹ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tuman bo'limining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

muhim bir yo'nalishi sifatida qabul qilinishi³⁰ mazkur soha taraqqiyotini ta'minlash masalasining dolzarbligini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida: "Soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi"³¹. Albatta, davlatning ijtimoiy majburiyatlarining bajarilishi, bunda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning aniq hisob-kitob qilinishi, o'z vaqtida to'liq hajmda to'lanishi va umuman Pensiya jamg'armasi faoliyati samaradorligi bevosita ushbu tizimda qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ham bog'liqdir.

So'nggi yillarda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida moliyalash, barqaror daromadlarni ta'minlash, shuningdek, yangi axborot tizimidan foydalangan holda, barcha tarkibiy bo'linmalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash Pensiya jamg'armasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-sonli qaroriga muvofiq davlat pensiya ta'minoti tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari joriy etildi. Pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsion dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali Pensiya jamg'armasining barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Pensiya"

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil., 6-son. 70-modda.

³¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

dasturiy majmui³² shulardan biridir. Ayni vaqtda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlar shakllantirilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to'lash joriy etilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini yaratishning kompleks rejasi besh tamoyilda o'z aksini topar ekan, unda ijtimoiy hayotning barcha jabhalari qamrab olindi. Bu tanlangan demokratik yo'l aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlashni, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi.

Zero, soha faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, avvalambor inson omilining salbiy rolini cheklash, jamg'arma faoliyatini takomillashtirish Pensiya jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ustivor vazifalardan biridir.

Aynan shu maqsadda, eng avvalo, Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha pensiya va nafaqa oluvchilarning ishonchli himoyalangan, yagona markazlashgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradigan zamonaviy avtomatlashtirilgan axborot tizimini amaliyotga keng joriy etish ishlari jadal olib borildi va bu jarayonlar davom etmoqda.

Unifikatsiyalashgan elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida "Fido biznes" MCHJ bilan hamkorlikda "Pensiya" dasturiy majmuasi ishlab chiqildi hamda bugungi kunda ushbu dasturiy ta'minot respublikaning barcha mintaqalarida tadbiiq etildi.

³² Mazkur mujmua O'zbekiston yirik kompaniyalardan biri – "Fido-biznes" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda yaratilgan. Tizimni ishlab chiqish 2010 yilning mayida boshlangan va bir yildan so'ng bu jarayon Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar va viloyatidagi tuman bo'limlarida davom ettirilgan. 2012 yilning birinchi choragida dasturiy majmua O'zbekistonning barcha hududlarida ishga tushirilgan.

Ushbu dasturiy ta'minotning amaliyotda keng joriy etilishi, sohada samaradorlikni oshirib, tezkor va aniq hisobotlar shakllanishi, pensiya tayinlanishi va to'lanishida inson omilini kamaytirish orqali jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan tezkor nazoratni ta'minlashga xizmat qilmoqda.



9-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi axborot tizimi³³

Mazkur dasturning kelajakda idoralararo integrallashuvi sifatida, boshqa vazirlik va idoralarning elektron ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro axborot almashinuvini tashkil etishni qayd etish mumkin.

Mazkur dasturni joriy etish natijasida pensiya va nafaqa to'lovlari bo'yicha bitta summaning ikki marta to'lanishi, to'lov miqdorini oshirib to'lanishining oldini oladi hamda ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirilishiga olib keladi.

Hozirgi kunda dastur O'zbekiston Respublikasi AT Xalq banki va tijorat banklarida quyidagi vazifalarni hal qilish imkoniyatini bermoqda:

– tijorat banklari tomonidan plastik kartochka orqali to'lab beriladigan pensiya va nafaqalar bo'yicha oylik elektron to'lov ro'yxatlarini shakllantirish, solishtirish va ularni taqdim etib borish;

³³ www.pfru.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

– ishlovchi pensionerlarni Xalq banki JBPH bazasiga tushgan 2 foizlik tushumlar orqali aniqlash imkoniyati;

– hududlar kesimida to‘lov qoldiqlari hamda to‘langan mablag‘lar miqdori bo‘yicha ma‘lumotlar olish;

– pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolar bo‘yicha ularning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘lariga amalga oshirilgan to‘lovlar to‘g‘risidagi ma‘lumot almashinuvi;

– pensiya va nafaqa olish uchun murojaat etgan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘lari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar bilan fuqaroning jamg‘armaga taqdim etgan (ish staji va ish haqi to‘g‘risidagi) ma‘lumotlarni solishtirib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida esa:

– yuridik shaxslar jamg‘armaga o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirmagan tashkilotlar bo‘yicha va ularning tushgan pullari to‘g‘risida ma‘lumotlar olish;

– fuqarolarning jamg‘armaga taqdim etgan (ish staji va ish haqi to‘g‘risidagi) ma‘lumotlarni oylik ish haqlari ma‘lumotlari bilan solishtirib borish imkoniyatini bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasida:

– tugatilgan korxonalar to‘g‘risida ma‘lumotlar olish hamda oylik, choraklik va yillik hisobotlarni elektron tarzda yuborish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Dasturning qo‘shimcha xizmatlarini yanada ko‘paytirish maqsadida uning yaqin kelajakda mazkur turdagi informatsion-interaktiv xizmatlar turlari joriy etilishi belgilab qo‘yilgan edi, ya‘ni:


– pensiya oluvchilarga ularning pensiya miqdorlari o‘zgarishi xususidagi ma‘lumotlarni mobil telefonlariga “SMS” ko‘rinishida yuborish;

– fuqarolarga ularning hisoblangan pensiya miqdorlari xususidagi ma‘lumotlarni elektron pochталari orqali kuzatib borish imkoniyatini berish;

– fuqarolar tomonidan o‘zlarining pensiya miqdorlarini masofadan turib (pension kalkulyator) jamg‘armaning veb-saytida hisoblash imkoniyatini ta’minlash;

– pensiya ta’minoti qonunchiligiga doir yangiliklar va o‘zgarishlarni fuqarolarning elektron pochtaalariga tarqatish;

– fuqarolar murojaatlarini o‘rganib chiqadigan, doimiy avtomatik ravishda faoliyat yurituvchi ishonch va shoshilinch telefonlarini yaratish.



10-rasm. “Pensiya” dasturiy majmuasining maqsadi³⁴

Bu borada tizim faoliyatiga zamonaviy veb-texnologiyalarni joriy etilishining mantiqiy davomi bo‘lib, pensiya jamg‘armasi tizimida tezkor elektron hujjat almashinuvi va kadrlar majmui bo‘yicha — WSP “Personal” dasturiy ta’minoti ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishini ta’kidlash mumkin.

WSP “Personal” dasturiy ta’minoti – tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi barcha mutaxassis xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning umumlashtirilgan bazasi bo‘lib, bunda joylardagi kadrlar sifat tarkibini tezkor nazorat qilish, tahlil qilish va tegishli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoni mavjud.

³⁴ Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – 280 b.

Shu bilan birga, mazkur dasturning yuqoridagi imkoniyatlaridan tashqari, uning tarkibida xodimlar malakasini oshirib borish uchun pensiya qonunchiligiga doir normativ-huquqiy hujjatlarning, idoraviy me'yoriy qo'llanmalarning elektron bazasi shakllantirilgan. Shuningdek, qog'oz sarfini kamaytirish maqsadida avtomatlashtirilgan elektron hujjat aylanishi dasturi tizim faoliyatida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda, bunda yuqori idoralardan yoki to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan barcha hujjatlarni, fuqarolarning murojaatlarini markazlashgan avtomatlashtirilgan tizim orqali quyi bo'g'inlarga etkazish, ijrosini nazoratga olish, tegishli javoblar olingan hujjatlarni nazoratdan chiqarish asosida monitoring o'rnatilganligini alohida qayd etish lozim.

Fuqarolarga pensiya tayinlash uchun murojaat etgan shaxsning boshqa hududda mehnat faoliyati yuritgan davrini aniqlash uchun, jamg'armaning xududiy bo'linmalari o'rtasida o'zaro so'rov xatlarini yuborish, murojaatga to'laqonli va haqqoniy javob olish hamda ushbu jarayon ustidan tegishli nazorat mexanizmini nazarda tutadigan "So'rov" moduli — WSP "Personal" dasturining qo'shimcha funksionali hisoblanadi.

Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar aybi bilan mehnatda mayiblanish tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalariga sarflangan mablag'larni qoplash yuzasidan regress da'volari hisobini yuritish, undirilishi lozim bo'lgan mablag'lar hamda ularning qoldiqlari bo'yicha yagona integrallashgan ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bu ham, o'z navbatida, jamg'arman daromadlarining bir turdagi manbaini to'la-to'kis shakllantirishda aniq tahliliy hisobotlarga va tezkor ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

O'tgan davr mobaynida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatida rejalashtirilgan bir qancha yangidan-yangi informatsion dasturlar joriy qilindi. Masalan:

– Har bir pensioner o'ziga tayinlangan pensiya (yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik) miqdorini bilishi uchun "SMS-xabar" xizmati joriy qilindi. Bunda 10711 qisqa raqamiga pensiya guvohnomasidagi o'zining shaxsiy raqamini sms tartibda junatadi. So'ngra pensiya haqida ma'lumot oladi;

– Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal. Bunda pensioner pensiya va nafaqa miqdori to'g'risidagi ma'lumotnoma olishi uchun YIDXP tizimi orqali "Pensiya va nafaqa miqdori to'g'risidagi ma'lumotnomani olish uchun elektron ariza yuborish" interaktiv xizmatidan foydalanishi mumkin;

– "Pensiya kalkulyatori". Har bir pensioner oldindan pensiya miqdorini bilmoqchi bo'lsa www.pfru.uz orqali taqdim qilinayotgan xizmatdan foydalanishi mumkin.

Binobarin, tizimni zamonaviy axborot texnologiyalari talablariga muvofiq texnik qurollantirish zaruriyati, yuqorida zikr etilgan sa'y-harakatlarni izchil davom ettirishning asosiy omilidir. Ayni shu maqsadda, bugungi kunda ijro etuvchi apparat tomonidan kommunikatsion uskunalar chet eldan keltirilib, hududiy bo'linmalar to'liq ta'minlandi.

Joylardagi tuman (shahar) bo'limlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda, e'tiborli jihatlaridan biri sifatida fuqarolarni qabul qilish xonalari tashkil etilayotganligini, zarur jihozlar o'rnatilib, unda fuqarolar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotganligini ta'kidlash lozim.

Hozirgi kunda ko'rilayotgan asosiy masalalardan biri davlat pensiya ta'minoti tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yaqin orada Qonunga ko'ra fuqarolarda pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan e'tiboran pensiya olish uchun zarur bo'ladigan mehnat staji o'rniga sug'urta stajini joriy etish masalasi ko'rilmogda.

"Pensiya" axborot tizimi pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning hajmini hisoblash, pensiya hamda nafaqalarni qonunchilikka asosan qayta hisob-kitob qilish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, u ishonchli himoya qilingan va markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarni ishonchli, to'liq va dolzarb axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir. Mazkur tizim Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida pensionerlarni ro'yxatga olish, ular haqidagi axborotlarni saqlash, qayta ishlash va berish, qayta ishlanayotgan axborotlarning tezkorligi va ishonchligini oshirish uchun pensionerlar to'g'risida

markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini yaratishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, axborot tizimi to'lov hujjatlarini (pensiya va nafaqalar to'lash uchun qaydnomalar) shakllantirish, elektron to'lov hujjatlarini to'lovlar uchun mas'ul tegishli tashkilotlarga jo'natish imkonini ham beradi. "Pensiya" axborot tizimidan foydalanish hisob shakllarini Pensiya jamg'armasi bo'linmalari darajasida olish, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining faoliyat ko'rsatkichlarini sifat jihatidan yaxshilash, pensiya va nafaqalarni turlari bo'yicha moliyalashtirishni hisobga olish hamda monitoring qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, tizimda davlat pensiya va nafaqalarini tayinlash, qayta hisob-kitob qilish va to'lash bo'yicha daromadlar hamda xarajatlarning kunlik balansini tuzish, Pensiya jamg'armasi mablag'larining sarflanishini barcha joylarda tezkor qayd etish, markazlashtirilgan ma'muriy nazoratni amalga oshirish imkoni ham bor. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda ham, jumladan, AQShda pensiya tizimini boshqarish, pensiya imtiyozlarini belgilash, pensiya tizimida investitsiyalarni boshqarish va boshqalar maxsus kompyuter dasturlari asosida amalga oshiriladi³⁵. Albatta, bunday holat pensiya tizimi faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-oktyabrdagi "2015-2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Pensiya" axborot tizimi negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimi ("Nafaqa" yagona axborot tizimi) tashkil etildi. Bu axborot tizimi keksa kishilar uchun pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlashning eng qulay tizimini nazarda tutadi, shuningdek, ma'lumotnomalar va tasdiqlovchi hujjatlarni qog'oz shaklida olishni istisno etgan holda pensiyalar va nafaqalar to'lashga mablag'larni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash imkonini beradi.

³⁵ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29; 85; 111.

Xulosa qilib aytganda, pensiya ta'minoti tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol joriy etilishi pensiya va nafaqalarning to'g'ri va aniq hisob-kitob qilinishini, davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanilishini, o'zaro axborot almashinuvining tezkorligi va shaffofligini, pensiya va nafaqa oluvchi fuqarolarga katta qulayliklar yaratilishini ta'minlaydi.

2-bob bo'yicha xulosa

Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo'li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi, davlat pensiya ta'minoti tizimi faoliyatida informatsion dasturlardan foydalanishning amaliy holati o'rganildi.

Hozirgi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tuman bo'limi eng so'nggi kompyuter jihozlar bilan to'liq ta'minlangan. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilarning yildan-yilga o'sib borayotganligiga qaramasdan bo'lim tomonidan ularga to'lovlar vaqtida ya'ni plastik kartochkaga joriy oyning 4-5 sanasigacha, naqd ko'rinishda esa joriy oyning 20-27 sanasigacha to'lab berilmoqda.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining axborot tizimi pensiya dasturiy majmuasi, Pensiya jamg'armasining rasmiy veb sayti va ishonch telefonlari (call centre) ishlab turibdi. Shuningdek, Pensiya jamg'armasining rasmiy veb saytida ham foydalanuvchi uchun qulayliklar yaratilgan.

Aytilgan hulosalarning barchasi aholi turmush farovonligini ta'minlash, nuroniy va pensionerlarni e'zozlash, tizimni takomillashtirib borish orqali fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini adolatli tashkil etishga xizmat qiladi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH DAVRIDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Xorij tajribasi asosida davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish istiqbollari

Pensiya ta'minoti bugungi kunda har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir biridan o`ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Davlat pensiya ta'minotini takomillashtirishda kopgina xorij tajribalari asos boladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohatlarning chuqurlashuvi bilan birga, iqtisodiy islohatlarda pensiya tizimini isloh qilishham muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, Pensiya jamg`armasi daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish borasidagi muammolarning qisman bo`lsada mavjudligi uni isloh qilishning zarur ekanligini ko`rsatadi. Ushbu mavjud muammolarni hal etishda jahonning rivojlangan mamlakatlari o`zining pensiya tizimini isloh etishda to`plangan ilg`or tajribalarini aniqlash hamda uni amaliyotimizda qollashimiz muhim hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma`lumki, mamlakatdagi samarali ijtimoiy ta'minot tizimi ba`zi vujudga kelishi mumkin bo`lgan ijtimoiy muammolarning oldini oladi. Rossiya Federatsiyasining pensiya tizimiga e`tibor bersak: Rossiya Federatsiyasi pensiya fondi turli xil pensiya turlarini o`z ichiga oladi, o`zining 42.5 milliondan ortiq fuqarolarini va undan tashqari Rossiya fuqarosi bo`lgan dunyoning qariyb 121 dan ortiq mamlakatlarining 270,000 dan ortiq rezidentlarini ijtimoiy to`lovlar bilan ta`minlaydi.³⁶

Jahonning aksariyat mamlakatlarida ko'tarilayotgan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bu demografik o'zgarishlar sababli mamlakatlar pensiya tizimlarida yuzaga kelayotgan inqirozlarni optimal hal qilish masalasidir, mazkur masalaning eng optimal yo'llarini topish ustida jahon hamjamiyatida keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Dunyo olimlari mazkur muammoni yechishning eng

³⁶ www.pfrf.ru – Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

oddiy yo'li sifatida pensiya tizimini ishlovchilarning to'lagan badallariga to'liq bog'langan tizimini joriy etish zarurligida deb biladi³⁷.

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida quyidagi pensiya turlari amal qiladi:

– sug'urtaviy pensiyalar (ularning 3 turi mavjud bo'lib: qarilik; nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari);

– davlat pensiyalari bu pensiyalar 4 turdagi pensiyani o'z ichiga oladi: uzoq xizmat qilganligi uchun beriladigan pensiya bu federal xizmatchilarga pensiyalar sinovchi uchuvchilariga, xizmatchilarga va kosmonavtlarga beriladigan pensiya turi, beriladigan pensiya turi, qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotgan, ka'm ta'minlanganlar uchun beriladigan pensiyalar;

– ijtimoiy nafaqalar;

– jamg'arib boriladigan pensiyalar.

Eng keng tarqalgan pensiya turi bu qarilik pensiyasi hisoblanadi. Pensiyaga chiqishi yoki erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilangan, ba'zi pensiya to'g'risidagi qonunlarga ko'ra ma'lum bir ish staji ham talab qilinadi. Ba'zi sanoat korxonalarini, tashkilotlar va institutlarda qilayotgan kasbiga ko'ra muddatidan oldin pensiyaga ruxsat etiladi. Bu pensiyaning shakllanish manbasi oylik ish haqi hisoblanib olinayotgan 22% lik ijtimoiy to'lovlarning 6%i davlat pensiya fondlariga o'tkaziladi, a'zolik badali 2017-yil yanvar holatiga 5000 rubl qilib belgilangan. Undan keyingisi nogironlik nafaqasi hisoblanib u I, II va III guruh nogironlariga alohida belgilanadi va bunda nogironning qaramog'idagi farzandlari soni ham hisobga olinadi.³⁸

Agar nogironlik nafaqasini olayotgan shaxs ish haqi olib ishlay boshlasa, unga nogironlik nafaqa puli to'lanmaydi. Doimiy tibbiy ko'rikka muhtoj va nogironlik nafaqasini oluvchilarga tibbiy ko'riklar uchun har oyda 1200 rubldan kunlik ko'rik uchun 225 rubldan chegirmalar beriladi.

³⁷ J.A.(Jairo)Rivera-Rozo, M.E.(Manuel)García-Huitrón, O.W.(Onno)Steenbeek^cS.G. (Fieke)van der Lecq. National culture and the configuration of public pensions. P: 458.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0147596717300458>

³⁸ www.pfrf.ru – Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Rossiyada 2017-yilda qaramog`idagi farzandlari soniga ko`ra nogironlarga
tayinlangan pensiya miqdorlari (rublda)³⁹**

Qaramog`idagi farzandlari soni	I guruh	II guruh	III guruh
Qaramog`ida hech kim yo`q	9117,86	4558,93	2279,47
Qaramog`ida 1 ta farzand	10637,5	5078,57	3799,11
Qaramog`ida 2 ta farzand	12157,14	7598,21	5318,75
Qaramog`ida 3 ta va undan ko`p farzand	13676,78	9117,85	6838,39

Hozirda Rossiya pensiya tizimidagi eng ilg`or va rivojlanib kelayotgan soha bu nodavlat pensiya fondlaridir. Nodavlat pensiya fondlarida (NPF) fuqarolar o`z topgan mablag`lari hisobidan o`zlarining kelajakda olishlari mumkin bo`lgan pensiya pullari hajmini shakllantiradilar. NPF lar o`z mijozlari uchun ikki xil tarif ochgan bo`lib ulardan birida har oyda oylik to`lovlar orqali pensiyani shakllantirilsa, ikkinchisida bir martalik to`lovlar orqali shakllantirilib boriladi, bu esa mavsumiy biznes bilan shug`ullanuvchilarga qator qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari, hozirgi paytda qonun hujjatlariga binoan NPF larga kiritiladigan badallarga va NPF lardan olinadigan pensiyalarga hech qanday soliq solinmaydi. Korxonalar uchun esa xodimlar foydasiga badallar kiritish soliq solinadigan bazani kamaytiradi. Bu esa NPF larga a`o bo`lish xodim uchun ham, korxonaga uchun ham birdek foydali ekanligini bildiradi. Bularning hammasi davlat tomonidan NPF larni rivojlantirish chora-tadbirlari natijasidir. Yana qayd etishimiz joizki, jami NPF lar aktivlari yildan yilga 18.6 foizga oshmoqda, buyiliga 2034 mlrd. rubl deganidir. Shu bilan bir vaqtda NPF lar soni ham oshib bormoqda. 2016-yil yakuniga kelib sug`urta agentliklari tomonidan ro`yhatga olingan NPF lar soni 43 taga yetdi. Bunday turdagi pensiya fondlari mamlakatdagi pensiya siyosatini barqarorlashtirishda va pensiya tizimidagi ziddiyatli vaziyatlarni yumshatishda

³⁹ www.pfrf.ru – Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi rasmiy veb sayti ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

muhim rol o`ynaydi va qarilikda ijtimoiy ta`minotning muhim bog`iniga aylanadi. Shu bilan bir vaqtda, NPF larining investitsion salohiyati orqali mamlakat iqtisodiyotining ko`plab tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo`ladi, natijada NPF lardan keladigan soliq tushumlari va ular tomonidan yaratilgan korxonalar biznes faoliyatidan keladigan foyda butun mamlakat iqtisodiyoti o`shishiga sezilarli ta`sir o`tkazadi. O`zbekiston sharoitida ham NPF lar faoliyatiga zamin yaratish va xususiy pensiya fondlarini tashkillashtirish mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o`shishga turtki bo`luvchi omillardan biri bo`ladi.

Yana bir rivojlangan mamlakat Yaponiya pensiya tizimi bugungi kunda dunyo bo`yicha o`ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda Yaponiyada aholi qarishi sharoitida pensiya to`lovlari miqdorining jadal oshib borishi va past darajadagi soliq bazasi sharoitida davlat qarzining oshishi pensiya tizimini isloh etishning dolzarbligini kuchaytirmoqda. Pensiya tizimi barqarorligining "Allianz" indeksi bo`yicha Yaponiya 2016-yilda 54 mamlakat tarkibida 46-o`rinni egalladi va pensiya tizimini isloh etishi zaruriyati yuqori bo`lgan mamlakatlar qatoridan joy oldi.⁴⁰

Yaponiya xukumati pensiya tizimini isloh qilishning quyidagi yo`nalishlarini ko`rib chiqmoqda: pensiya yoshini oshirish, qoplash koeffitsientini kamaytirish va pensiya badallari stavkasini oshirish.

Yaponiyada umr davomiyligi va pensiya yoshi o`rtasidagi farq boshqa davlatlarda nisbatan yuqoridir. Tug`ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2030 – yilga borib ayollar uchun 89,4 yosh, erkaklar uchun esa 82,4 yoshga yetishi kutilmoqda. Milliy pensiya dasturi pensionerlari uchun 2000-2030 yillar davomida agar pensiya yoshi 65 yoshda o`zgarishsiz qolsa, pensiya yoshida kutilayotgan umr davomiyligi 4 yilga ortishi qutilmoqda. Kasbiy pensiya dasturida ushbu ko`rsatkich pensiya yoshining muntazam oshirib borilishi tufayli 2030-yilga kelib milliy pensiya tizimidagi ko`rsatkich bilan teng bo`lishi kutilmoqda.

Pensiyaga chiqish yoshini oshirish ishchi kuchining keksa ishchilar xisobiga ortishi va daromadlarning oshishi xisobiga iste`mol xarajatlari ortishi tufayli uzoq

⁴⁰ 2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016.

muddatli davrda iqtisodiy o`shirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Pensiya yoshini oshirish soliq yukining yosh va keksa avlod o`rtasida nisbatan adolatliroq taqsimlanishiga olib keladi. Ushbu islohat pensiya badallarini kamaytirish xisobiga ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo`lgan xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va uy xo`jaliklarining ixtiyoridagi daromadlarini oshiradi.

Yaponiyaning 65 yoshdan oshgan aholisi nisbatan sog`lom va mehnat qobiliyatini yo`qotish ehtimoli juda kam bo`lsada, ular pensiya yoshining oshirilishi keksalikdagi qashshoqlikni keltirib chiqarmasligini ta`minlash maqsadida qarilikdagi nogironlik pensiyasi va ijtimoiy yordam dasturlari bilan ijtimoiy sug`urtalanishi kerak.

Qoplash koeffitsentini pasaytirish kelgusida tayanch pensiya tizimini davlat byudjeti xisobidan moliyalashtirishni qisqartirishga olib kelsada, ushbu islohat keksalar qashshoqligi muammosini kuchaytirishi mumkin. 2020-yilga qadar ushbu koeffitsentni bosqichma-bosqich 3% kamaytirish pensiya ta`minotiga byudjet xarajatlarining YAIMga nisbatan 0,5 % ga kamayishiga olib keladi. Ushbu islohat soliq yukini yosh avlodga nisbatan keksa avlodga ko`proq yuklab avlodlar o`rtasidagi daromadlar taqsimlanishi tengsizligini tartibga soladi. Biroq pensionerlarning asosiy iste`mol talablarini zo`rg`a qoplovchi tayanch pensiya to`lovlarining joriy (bir yillik pensiya to`lovi 780 100 iena) xolatida qoplash koeffitsentini pasaytirish keksalikdagi qashshoqlikning oldini olish-imkoniyatlarini kamaytiradi. Ushbu islohat natijasida byudjet mablag`larining ma`lum miqdorda tejalishi bilan birgalikda, ijtimoiy himoyaga bo`lgan xarajatlar ortib ketishi ham mumkin.⁴¹

Yaponiyada tayanch pensiya to`lovlarining 50 foizi byudjet subsidiyalari xisobidan moliyalashtiriladi. Buning o`rniga subsidiyalar hajmini kam daromadli (kambag`al) pensionerlar uchun oshirish va aksincha, daromadlari darajasi yuqori (boy) pensionerlar uchun esa kamaytirish maqsadga muvofiq. Bunday holatda davlat byudjeti mablag`lari sezilarli darajada tejalishi mumkin va kam daromadli

⁴¹ 2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016.

pensionerlarning o`rtacha pensiya daromadlari rejalashtirilgan darajadan ham oshishi mumkin.

Pensiya daromadlariga nisbatan imtiyozli soliq rejimini qisqartirish ham davlat byudjeti mablag`larini sezilarli miqdorda tejashga olib keladi. Xozirgi vaqtda daromad solig`i xisoblashda davlat pensiya to`lovlarining sezilarli qismi soliqqa tortilmaydi. Bir yillik pensiya daromadlari 1,2 mln yuandan oshmagan pensionerlar uchun davlat pensiya to`lovlari to`liq daromad solig`idan ozod qilingan. Shuningdek, eng boy pensionerlarning 2 % i oladigan pensiya daromadlarining 40 % idan daromad solig`i olinmaydi. Umumiy xisobda pensiya to`lovlaridan olinadigan daromadlarning taxmiman 75% i soliqqa tortilmaydi.

Pensiya badallarini oshirish davlat byudjeti mablag`larining ko`payishiga olib keladi. Tayanch pensiya tizimi pensiya badallarini 1%ga oshirish badallar umumiy summasini YAIM ga nisbatan 2020-yilda 0,5 % ga ortishiga olib keladi va ushbu mablag`lar pensiya tizimini byudjet subsidiyalari xisobidan moliyalashtirishni kamaytirishga yordam beradi. Pensiya badallarining yuqori bo`lishi, o`z navbatida, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifiga salbiy ta`sir ko`rsatishi bilan bir qatorda, yosh avlodga nisbatan soliq yukining asossiz oshib borishiga olib keladi.

Yuqori keltirilgan islohatlardan ular o`rtasidagi mutanosibligini ta`minlangan holda bir vaqtning o`zida foydalanish ham mumkin. Lekin ko`rsatilgan ushbu pensiya islohatlari mamlakatning iqtisodiy o`shishiga hamda keksa va avlod o`rtasidagi mutanosiblikka turlicha ta`sir etishini xisobga olish zarur

3.2. Davlat pensiya ta`minotining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'llari

O'zbekistonda davlat pensiya ta`minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash maqsadida, 1993 yilda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bir qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu Qonunga kiritilgan o'zgartish va

qo'shimchalar, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi pensioner va nogironlarning turmush darajasi hamda faravonligini oshirishga, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu Qonunga 2011-yil 1-yanvardan tegishli o'zgartirishlar kiritilib, o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari optimallashtirildi hamda endilikda yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining quyi chegarasi belgilandi ya'ni 5 yil minimum ish stajiga ega bo'lishligi talab etiladigan bo'ldi.

Shuningdek, 2012-yil 6-yanvardan kuchga kirgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalarda ijtimoiy mo'ljalning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'tgan yillardagi ish haqini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan qayta hisoblashning amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Qonunchilikdagi mazkur o'zgarishlarning izchil ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Pensiya tayinlash va to'lash jarayonini tartibga soluvchi yagona Nizom – Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi 252-sonli "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori amaliyotga joriy etildi. Shu bilan birga, pensiya ishlarinirasmiylashtirish va yuritish tartib qoidalari hamda pensiya qonunchiligiga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib amaliyotga keng joriy etilishi, pensiya tizimi faoliyatining normativ-huquqiy bazasini yanada mustahkamlamoqda. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga yana kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra 2016-yil 1-iyuldan boshlab yoshga doir pensiyaga chiqish minimum staji 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi loyihasiga ko'ra pensiyaga chiqishning minimum stajini 7 yildan 10 yilga oshirish taklifi berilgan.

Pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, bu islohotlarni respublikamizda boshqa islohotlar bilan jumladan, mehnat bozoridagi islohotlar, soliq tizimidagi islohotlar, moliya va kredit tizimidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Pensiya tizimini moliyalashtirish bo'yicha o'zgarishlarni amalga oshirishda, milliy urf-odatlar, oilalarga, qariyalarga yordam e'tiborga olinishi kerak, pensiya tizimini moliyalashtirishda davlat byudjetidan moliyalashtirish saqlanib qolinishi lozim.

Kelgusida respublikamizda pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda faoliyatni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– Fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lmasdan qolmoqda, buning natijasida mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foiz (qariyb 17 mln. kishi), tahminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinmagan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy ajratmalarni amalga oshirmayapti. Xalqaro mehnat tashkilotining talabari muvofiq, fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to'lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o'zaro nisbati 1 : 4 darajada bo'lishi ko'rsatilgan. Biroq, bugungi kunda O'zbekistonda bu ko'rsatkich o'rtacha 1 : 1,5 ga teng. Ta'kidlash joizki, pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbati 2009 yildagi 61 foizdan 2017 yilda 66 foizga o'sgan.⁴² Shu nuqtai nazardan ushbu nisbatni ta'minlash uchun "konvert" usulida berilayotgan ish haqilarni batamom bartaraf etish va bularni qonuniylashtirish kerak;

– Pensiya jamg'armasi mablag'larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanadi. Imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etadi.

⁴² Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi loyihasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Manba: www.pfru.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining rasmiy veb sayti.

Yiliga o'rta hisobda 39,8 mingta imtiyozli pensiyalar tayinlanmoqda. Shu bilan birga imtiyozli pensiyalarning o'rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o'rtacha miqdoridan (543,2 ming so'm) yuqori bo'lib, 3 – sonli Ro'yxat bo'yicha o'rtacha pensiyalar 742,6 ming so'mni, 2 – sonli Ro'yxat bo'yicha pensiyalar 951,3 ming so'mni va 1 – sonli Ro'yxat bo'yicha pensiyalar 1 025,4 ming so'mni tashkil etadi.⁴³ Bu esa imtiyolarni qayta korib chiqish, ba'zilarini hatto bekor qilish kerakligini ko'rsatmoqda;

– “Avlodlar birdamligi” pensiya tizimidan bosqichma-bosqich jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tish siyosatini maqsadga muvofiq ravishda, izchillik bilan amalga oshirish zarur. Buning natijasida Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlar bo'yicha ish beruvchi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi;

– O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunning 60-moddasida qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya bilan ular ta'minoti uchun sarf-xarajat o'rtasidagi farq, lekin tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi, deb ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, “Qariyalar va nogironlar internat uylarida yashovchi shaxslarga pensiyalar to'lash to'g'risida”gi 60-moddani yanada aniqlashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunining VII-BOB. Pensiyalar tayinlash. “Pensiya uchun murojaat etilgan kun” ko'rsatilgan 46-moddada taqdimnoma yoki ariza barcha zarur hujjatlar bilan qabul qilib olingan kun pensiya uchun murojaat etilgan kun deb hisoblanadi. Taqdimnomaga yoki arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limi korxonasi, tashkilot ma'muriyatiga

⁴³ Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi loyihasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Manba: www.pfru.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining rasmiy veb sayti.

yoki arizachiga qo'shimcha ravishda qaysi hujjatlar taqdim etilishi kerakligi haqida xabar qiladi.

Mazkur muddat Belarussiyada bir oy, Rossiya Federatsiyasida uch oy belgilangan. Bizning fikrimizcha, uch oy muddatni bir oy muddat bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Pensiyalarni qayta hisoblash shartlari” ko'rsatilgan 49-moddada ko'rsatilishicha, pensiyalarni qayta hisoblash: pensioner pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo'lgan ish staji va ish haqi to'g'risidagi hamda boshqa) qo'shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda; nogironlik guruhi o'zgarganda; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi oladigan oila a'zolari soni o'zgarganda; eng kam oylik ish haqi miqdorlari o'zgargan taqdirda; daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi. Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo'lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin. Fikrimizcha, mazkur moddaga pensiyani qayta hisoblash muddatni ko'rsatish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunining 55-moddasida “Nogironlik davrida tanaffuslar bo'lganda pensiya to'lashni qayta davom ettirish shartlari” berilgan. Agar nogiron uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda qayta ko'rikdan o'tish uchun tibbiy mehnat ekspert komissiyalari (TMEK)ga bormagan bo'lsa, unga pensiya to'lash to'xtatib qo'yiladi, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda to'xtatib qo'yilgan kundan, lekin ko'pi bilan o'tgan bir oydan boshlab pensiya to'lash davom ettiriladi. Uzrli sababga ko'ra qayta ko'rikdan o'tish muddati o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb topsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'pi bilan o'tgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta ko'rikdan o'tkazish chog'ida nogironlikning boshqa guruhiga (yuqori yoki past guruhga) o'tkazilgan bo'lsa, pensiya ko'rsatib o'tilgan vaqt uchun avvalgi guruh bo'yicha to'lanadi.

Umuman olganda yuqorida ta'kidlangan fikrlarni amalga oshirish pensiya tizimida katta yutuqlarga erishish imkonini beradi deb hisoblaymiz.

3-bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta'minotini rivojlantirishda unga bir qancha o'zgartirishlar kiritishda xorij tajribasi asos bo'la oladi. Bitiruv malakaviy ishining 3-bobida Rossiya Federatsiyasi pensiya ta'minoti keltirib o'tilgan. Jahon tajribasidan ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish yetarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish (korporativ pensiya), fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida xususiy pensiyani ta'minlash belgilangan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pensiya tizimi samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o'rtasida ma'lum darajada muvozanat bo'lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o'zgarishini, ya'ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bozor nuqtai nazaridan kamayishini, ya'ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham etmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida hozirdan pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

– O'zbekistonda pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Pensiya ta'minoti deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog'liq, fuqarolar mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadi;

– O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash talabi kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni talab etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish mamlakatlarda ijtimoiy muammolarni hal qilish va keksa kishilarni himoyalashda muhim o'rin egallaydi;

– pensiya tizimi aholining ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan pul mablag'lari jamg'armasidan foydalanishga asoslanadi;

– Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar va tendensiyalar fuqarolarimiz turmush sharoitini yanada yaxshilash, inson manfaatlarini ta'minlash sohasidagi ishlarimiz miqyosini uzluksiz ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Keyingi yillarda davlat tomonidan pensiya qonunchiligini takomillashtirish, davlat pensiyalarini tayinlash va to'lashni amalga oshirish tizimidagi keng ko'lamli tadbirlardan ko'zlangan maqsad ham zamon talablarini hisobga olish hamda o'zgarib borayotgan sharoitga moslashishdan iborat;

– demografik va makroiqtisodiy omillarning bevosita ta'sirida pensiya ta'minoti tizimi isloh etib boriladi, shu munosabat bilan ularga ma'lum muddatlarda tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi;

– nodavlat pensiya ta'minoti davlat tomonidan tartibga solinadi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida pensiya ta'minotining davlat va xususiy tizimlari bir-birini o'zaro to'ldiruvchilar hisoblanadi. Ushbu jarayon taraqqiyotning ijtimoiy

maqsadlariga erishish uchun bozor mexanizmi bilan taqsimlashning davlat mexanizmi uyg'unlashgan holda qo'llanishini taqozo etadi;

– pensiya ta'minoti umumiylikdan xususiylikka qarab rivojlanib bormoqda, ushbu holat pensiya ta'minoti ishtirokchilarida qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar shakllanishiga olib keladi.

Qilingan xulosalar asosida bitiruv malakaviy ish obyektini va predmetini bo'yicha quyidagi takliflar berildi:

1. Avvalo birinchi o'rinda beradigan taklifimiz fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini oshirish maqsadga muvofiq. Chunki, mamlakatimizda aholining o'rtacha umr ko'rish yoshi oshmoqda, pensioner bilan ishlovchi nisbati 1:1,5 bo'lmoqda, qo'shni mamlakatlarda ham, taraqqiy etgan mamlakatlarda ham pensiya yoshi oshirilmoqda. Ushbu sabablar pensiya yoshini oshirish uchun yetarli asos bo'la oladi.

2. Pensiya ta'minotiga oid qonunchilikni soddalashtirish hamda takomillashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun mahallalarda fuqarolar kengashlarida, ommaviy axborot vositalarida, iloji boricha zamonaviy dasturlar orqali fuqarolarga tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

3. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan aksionerlik kompaniyalarida mehnat qiluvchi ishchi-xodimlarga ma'lum bir muddat ishlagandan so'ng ularga davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda har oylik ustamalar belgilash orqali korporativ pensiyani joriy qilish kerak. Masalan, bir ishchi 5 yildan 10 yilgacha bir kompaniyada mehnat qilsa oladigan pensiya miqdoriga nisbatan 10 foiz ustama haq qo'shib berish yoki 10 yildan 15 yilgacha mehnat qilsa 15 foiz miqdorda va shunga uxshash tizimda joriy qilish maqsadga muvofiq.

4. Pensiya ta'minoti tizimida yuritilayotgan barcha reestrlarni elektron ko'rinishga o'tkazish hamda Pensiya jamg'armasiga tegishli tartibda badal o'tkazayotgan jismoniy shaxslarning (8 foiz), yakka tartibdagi tadbirkorlarning (EKIHning 1 barobari) yagona reestrini tuzish kerak.

5. Amaliyotda yana shunday muammo mavjud ekanki pensiyaga chiqayotgan fuqarolarning ko'pchiligi har xil joyda ishlaganligi sababli oylik ish

haqi to'g'risidagi ma'lumotlarning ko'pchiligini arxivdan yo'qligi hamda fuqarolik sudiga murojat qilish orqali sud qarori bilan stajni hisobga oldirishi va bu bilan fuqaro ortiqcha ovvora bo'lishi kuzatilmoqda. Taklifim mehnat stajini bekor qilib sug'urta stajga o'tish va bu orqali Pensiya bo'lajak pensioner haqidagi ma'lumotni Davlat soliq qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalaridan (STIR-soliq to'lovchining identifikatsion raqami) yoki AT Xalq bankidan (shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i) olishi mumkin bo'ladi.

6. Pensiyaga chiqish imtiyozlarni, shuningdek, ustamalarni qaytadan ko'rib chiqish va iloji boricha qisqartirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 35-son, 914-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y. №52-I-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-938-XII-son, 03.09.1993. www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni.702-II-son, 02.12.2014. O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 33-son, 439-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 6-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevralda PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion

g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi 2017-yil 20-noyabrdagi PF-5245-son Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tshqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 30-dekabrdagi PQ-1252-son Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3454-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 2-fevraldagi PQ-2753-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli Qarori. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son Qaroriga asosan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqildi. Manba: www.lex.uz – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga

yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 2011-yil 8-sentyabrdagi 252-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-y., 15-son, 249-modda; 26-son, 591-modda, 37-son, 990-modda, 37-son, 997-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

18. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

21. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.

22. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018 y. – 68 bet.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

23. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. – 280 b.

24. Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 248 b.

25. Axmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik. –T.: TDYI, 2008. 406 bet.

26. Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b.

27. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29; 85; 111.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

28. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik statistika to‘plami. Toshkent-2017. – 284 b.

29. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va samaradorligini oshirish” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. – Toshkent.: “Universitet”. 2017. 203 b.

30. “O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta‘minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman: Tezislari to‘plami. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 432 b.

31. “Pensiya tizimining moliyalashtirish: xorij tajribasi va uni takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. –T.: “Universitet”. 2016. 220 b.

32. “Pensiya ta‘minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. –T.: “Universitet”. 2014. 272 b.

33. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018-yil I-chorak yakunlari bo‘yicha davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot.

34. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Yunusobod tuman bo‘limining hisobotlari.

35. J.A.(Jairo)Rivera-Rozo, M.E.(Manuel)García-Huitrón, O.W.(Onno)Steenbeekc S.G. (Fieke)van der Lecq. National culture and the configuration of public pensions. P: 458. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0147596717300458>

36.2016 Pension Sustainability Index. International Pension Papers 1/2016.

5. Internet saytlar

37.www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti);

38.www.lex.uz (O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi rasmiy veb sayti);

39.www.pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi rasmiy veb sayti);

40.www.pfrf.ru (Rossiya Federatsiyasi Pensiya fondi rasmiy veb sayti).